

## O'ZBEKISTONDA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR UCHUN INKLUYUVIZ TA'LIM

Soatova Rayxona Sadriddin qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

Pedagogika va san'at fakulteti Pedagogika yo'naliishi talabasi.

*rayhonasoatova@gmail.com*

*<https://doi.org/10.5281/zenodo.11199892>*

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv ta'lismi, inklyuviz ta'limga maqsad va vazifalari, jamiyatimiz hayotida nechog'lik ahamiyatiga ekanligi haqida so'z boradi.

*Kalit so'zlar:* inklyuziv ta'lismi, anomalous children, education, socialization

### INCLUDE EDUCATION FOR CHILDREN WITH DISABILITIES IN UZBEKISTAN

*Abstract.* This article talks about inclusive education for children with disabilities, the goals and objectives of inclusive education, and how important it is in the life of our society.

*Key words:* inclusive education, abnormal children, education, socialization

### ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ ДЛЯ ДЕТЕЙ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ В УЗБЕКИСТАНЕ

*Аннотация.* В данной статье говорится об инклюзивном образовании для детей с ограниченными возможностями, целях и задачах инклюзивного образования, а также его значении в жизни нашего общества.

*Ключевые слова:* инклюзивное образование, аномальные дети, образование, социализация.

Ma'lumki, dunyoda barcha insonlar birdek sog'lom, har taraflama mukammal qilib yaratilmagan, lekin shunga qaramasdan bu ularning teng huquqlilik imkoniyatidan mahrum etmaydi. Anomal bolalar bilan korreksion ta'limi, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ishlar olib borish, ijtimoiy hayotga moslashtirish, barcha imkoniyatlaridan foydalanib, o'z-o'ziga xizmat qila oladigan va jamiyatga ma'lum darajada nafi tegadigan qilib voyaga yetkazish har bir davlatning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Zero, muhtaram prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning ta'biri bilan aytganda "Har qanday xalqning ma'naviyati shu jamiyatda yashovchi nogironlarga bo'lgan e'tibori bilan ham belgilanadi" <sup>1</sup>.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutqi. 2020-yil 30-sentabr.( <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/rasmiy/4939.htm>)

Ammo shunga qaramasdan maxsus yordamga muhtoj bolalar ba'zi hollarda ta'limdan chetda qolib ketmoqdalar. Bunga asosiy sabablardan biri, ota-onalarning o'z farzandiga bo'lgan e'tiborining yetishmasligi bo'lsa, ikkinchisi anomal bolani o'qitish uchun ta'lim muassasalarining o'sha hududda yo'qligi yoki yetarlicha sharoit bilan ta'minlanmaganlidir. Bolalarda yetarlicha sharoitning yetishmasligi natijasida imkoniyati, qobiliyatlarining chegaralanib qolishi, undagi nuqsonlar maxsus mutaxassislar tomonidan korreksiyalanmasa yanada og'irlashishi mumkin.

Bularning natijasida bolaning ijtimoiy hayotga moslashishi qiyinlashadi. Bu kabi muhim vazifalarni to'laqonli amalgaga oshirish maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni huquqlarini qo'llab-quvvatlab, ularni joriy etish maqsadida jahon miqyosida "Inklyuziv ta'lim" siyosat darajasiga ko'tarilib xalqaro huquq normalari, jumladan, BMT ning 1989 yilgi "Bolalar huquqlari to'g'risida Konvensiya"si, Dakkar Deklaratsiyasi, Salamanka bayonoti va Ish rejasi (1994yil) hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldag'i PF-6155-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2017 - 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalgaga oshirishga oid davlat dasturi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohibda ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida vazirlar Mahkamasining qaror<sup>2</sup>lari chiqadi.

Shu o'rinda savol vujudga keladi. Inklyuziv ta'lim nima? Inklyuziv ta'lim hamma bolalarning bir xil mакtab va bir xil sinfxonada – bir xil sharoitda ta'lim olishini anglatadi. Ya'ni imkoniyati cheklangan bola sog'lom bolalar bilan bir xil e'tiborda o'qiy olishi kerak.

O'zbekistonda oilaviy sharoitidan qat'i nazar, barcha bolalar davlat umumta'lim maktablariga qatnaydi. Bu davlat tomonidan kafolatlangan.<sup>3</sup>

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda 86 ta ixtisoslashtirilgan maktabda 21,2 mingdan ortiq, sanatoriy turdag'i maktab-internatlarda 6,1 mingdan ortiq, uy sharoitida esa 13,3 ming nafar o'quvchi uyda ta'lim oladi. 2020-yil statistikasiga ko'ra, yurtimizda 3,2 mingdan ortiq umumiyl o'rta ta'lim maktablarida 13mingn nafarga yaqin o'quvchilar inklyuziv ta'limga qamrab olingan. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev qarorlari bilan 2025-yilgacha inklyuziv ta'limni bosqichma-bosqich joriy etish masalasi yo'lga qo'yilgan. Fikrimizcha, bu islohotlar natijasida bolalar sifatli ta'lim-tarbiya olib, jamiyatimiz rivojiga ulkan hissa qo'shadilar.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 12.10.2021 yildagi 638-son

<sup>3</sup> <https://uz.goodinternet.org/uz/sections/osmirlar/talim-va-men/inklyuziv-talim-nima/>

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutqi. 2020-yil 30-sentabr.  
[\(http://marifat.uz/marifat/ruknlar/rasmiy/4939.htm\)](http://marifat.uz/marifat/ruknlar/rasmiy/4939.htm)
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamsi qarori, 12.10.2021-yildagi 638-sон
3. <https://uz.goodinternet.org/uz/sections/osmirlar/talim-va-men/inklyuziv-talim-nima/>
4. [https://kun.uz/news/2021/03/18/inklyuziv-talim-uchun-5-yillik-reja-jamiyat-va-maktablar-imkoniyati-cheklangan-bolalarni-qabul-qilishga-tayyormi](https://kun.uz/news/2021/03/18/inklyuziv-talim-uchun-5-yillik-reja-jamiyat-va-maktablar-imkoniyati-cheklangan-bolalarni-qabul-qilishga-tayyormi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2021%2F03%2F18%2Finklyuziv-talim-uchun-5-yillik-reja-jamiyat-va-maktablar-imkoniyati-cheklangan-bolalarni-qabul-qilishga-tayyormi)
5. G.Nabiyeva. IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARING TA'LIM-TARBIYA OLISHLARI. «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601 //// \\\ Volume: 1, ISSUE: 5